

“TASDIQLAYMAN”
Xalqaro Nordik universiteti
rektori Sh.I. Mustafakulov



TALABALAR BILIMINI BAHOLASH TO‘G‘RISIDA NIZOM

*Xalqaro Nordik universiteti Kengashining
2026-yil 30-yanvardagi 1-son qarori bilan tavsiya etilgan*

I. Umumiy qoidalar

1.1. Xalqaro Nordik universitetida (keyingi o‘rinlarda – Universitet) talabalar bilimini baholash to‘g‘risida Nizom (keyingi o‘rinlarda – Nizom) talabalarning bilimini baholash jarayonlarini tashkil etish, amalga oshirish hamda baholashning asosiy tamoyillari va mezonlarini belgilaydi.

1.2. Nizom ta‘lim dasturlarining Davlat ta‘lim standarti (DTS), Milliy malakalar ramkasi (MMR) hamda ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System) kredit-modul tizimi talablariga muvofiqligini ta‘minlash asosida ta‘lim jarayonida talabalar bilimini baholash tartibini belgilaydi. Mazkur Nizom:

- ta‘lim dasturlarining davlat ta‘lim standartiga muvofiqligini;
- baholash jarayonining shaffofligi va xolisligini;
- baholash tizimini takomillashtirish mexanizmlarini belgilaydi.

1.3. Ushbu Nizom O‘zbekiston Respublikasining “Ta‘lim to‘g‘risida”gi 2020-yil 23-sentabrdagi O‘RQ–637-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 13-sentabrdagi “Oliy ta‘lim tashkilotlariga o‘qishga qabul qilish jarayonlarini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida”gi 578-son Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta‘lim vazirining 2018-yil 9-avgustdagi “Oliy ta‘lim tashkilotlarida talabalar bilimini nazorat qilish va baholash tizimi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”19-2018-son, “Oliy ta‘lim tashkilotlarida talabalar bilimini baholashdagi norozilik bo‘yicha apellyatsiya arizalarini ko‘rib chiqish va talabalarning dars mashg‘ulotlarida ishtirok etishini tartibga solish to‘g‘risida” gi 2024-yil 2-dekabrda 451-son buyruqlari hamda Universitetning “ECTS kredit-modul tizimini joriy etish asosida o‘quv jarayonini tashkil etish to‘g‘risida”gi Nizomiga muvofiq ishlab chiqilgan.

1.4. Mazkur Nizomning maqsadi talabalarning nazariy va amaliy bilimlari, ko‘nikmalari hamda zamonaviy kompetensiyalarini, shuningdek mehnat bozori talablariga mos kasbiy kompetensiyalarini baholashning yagona akademik tizimini joriy etishdan iborat. Shuningdek, ta‘lim jarayonida baholashning shaffofligi, adolatliligi va xolisligini ta‘minlash hamda baholash jarayonlarini xalqaro standartlar asosida tashkil etishga qaratilgan.

1.5. Nizomning asosiy vazifalari:

- ta‘lim natijalariga asoslangan baholashni joriy etish;
- talabalarning akademik faoliyatini tizimli baholash;
- ta‘lim sifati monitoringini kuchaytirish;
- xalqaro akademik mobillikka mos baholash tizimini shakllantirish.

1.6. Nizom Yevropada oliy ta‘lim sifatini ta‘minlash bo‘yicha standart va ko‘rsatmalari (ESG), Yevropa kreditlarni transfer qilish va to‘plash tizimi (ECTS) hamda Natijaga yo‘naltirilgan ta‘lim (OBE) tamoyillarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan.

1.7. Baholash natijalari talabalarning GPA ko‘rsatkichini shakllantirishda asos bo‘lib xizmat qiladi (1-ilova).

1.8. Nizom talablari barcha professor-o‘qituvchilar va talabalar uchun majburiy hisoblanadi.

1.9. Mazkur Nizomda quyidagi asosiy tushunchalardan foydalaniladi:

Baholash (Assessment) – talabanning bilim, ko‘nikma va kompetensiyalarini aniq mezonlar asosida baholash jarayoni.

Formativ baholash (Formative assessment) – ta’lim jarayoni davomida talabanning rivojlanishini kuzatish va doimiy fikr-mulohaza berishga qaratilgan baholash turi.

Summativ baholash (Summative assessment) – fan yoki modul yakunida talabanning umumiy o‘quv natijalarini aniqlash maqsadida amalga oshiriladigan baholash.

Joriy nazorat (JN) – semestr davomida talabanning darsdagi faolligi, topshiriqlari va amaliy ishlarini baholash jarayoni.

Oraliq nazorat (ON) – semestrning belgilangan bosqichida amalga oshiriladigan yozma yoki amaliy baholash.

Yakuniy nazorat (YN) – semestr oxirida talabanning fan bo‘yicha umumiy bilim darajasini baholash uchun o‘tkaziladigan imtihon.

ECTS (European Credit Transfer and Accumulation System) – talabalarning o‘quv yuklamasi va akademik natijalarini baholashning xalqaro kredit tizimi.

O‘quv natijalari (Learning Outcomes) – talabanning fanni o‘zlashtirish natijasida egallashi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va kompetensiyalar.

Baholash rubrikasi (Rubric) – topshiriqni baholashda qo‘llaniladigan aniq mezonlar va ball taqsimoti.

GPA ko‘rsatkichi (Grade Point Average) – talabanning o‘rtacha akademik ko‘rsatkichini ifodalovchi reyting.

Akademik halollik (Academic Integrity) – ta’lim jarayonida plagiat, aldash va boshqa noqonuniy harakatlarni rad etuvchi tamoyillar majmuasi.

Plagiat – boshqa manbalardan olingan materiallarni manbasini ko‘rsatmasdan o‘z nomi bilan taqdim etish.

Apellyatsiya – talabanning baholash natijalaridan shikoyatlari bo‘yicha qayta ko‘rib chiqishni so‘rash huquqi.

Syllabus (Syllabus) – fan mazmuni, o‘quv natijalari va baholash mezonlarini o‘z ichiga olgan asosiy akademik hujjat.

HEMIS axborot tizimi – universitetda baholash natijalarini yuritish va monitoring qilish uchun qo‘llaniladigan raqamli platforma.

II. Baholash jarayonini tashkil etish

2.1. Universitetda talabalar bilimni baholash jarayoni markazlashtirilgan akademik siyosat hamda sifatni ta’minlash tizimi asosida tashkil etiladi. Baholash jarayonlari ta’lim dasturlarining maqsad va kutilayotgan o‘quv natijalariga mos ravishda rejalashtiriladi hamda amalga oshiriladi.

2.2. Akademik ishlar departamenti baholash jarayonining muvofiqlashtiruvchi tuzilmasi hisoblanadi va quyidagi vazifalarni bajaradi:

- baholash siyosatini ishlab chiqish va yangilab borish;
- baholash jarayonlari monitoringini olib borish;

- professor-o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar tayyorlash;
- baholash natijalari asosida sifat tahlillarini amalga oshirish;
- xalqaro standartlarga moslikni nazorat qilish.

2.3. Bunda Akademik ishlar departamenti baholash siyosatini ishlab chiqish, baholash jarayonlari monitoringini amalga oshirish, professor-o‘qituvchilar uchun metodik tavsiyalar tayyorlash, baholash natijalari asosida ta’lim sifati tahlilini olib borish hamda xalqaro standartlarga moslikni nazorat qilish funksiyalarini ichki akademik audit, baholar statistik tahlili, talabalar anonim so‘rovlari, metodik seminarlar, benchmarking tahlillari hamda tegishli normativ-huquqiy hujjatlar va reglamentlar kabi mexanizmlar orqali amalga oshiradi:

2.4. Universitetda baholash sifati va xolisligini ta’minlash maqsadida quyidagi xalqaro sifatni ta’minlovchi mexanizmlarni qamrab oladi:

Moderation – baholash natijalarini ichki akademik tekshiruvdan o‘tkazish. Bunda baholash mezonlari va natijalarining xolisligini ta’minlash maqsadida moderation jarayoni joriy etiladi. Moderation baholash topshiriqlarini oldindan ekspertiza qilish, yozma ishlarni tanlab qayta tekshirish hamda baholash natijalarini kafedra darajasida muhokama qilishni o‘z ichiga oladi.

Double marking – yozma ishlarni ikki nafar baholovchi tomonidan tekshirish amaliyoti hisoblanib, yakuniy yozma ishlar, loyihalar va muhim nazorat ishlari kamida ikki nafar mustaqil baholovchi tomonidan tekshirilishi mumkin. Agar baholar o‘rtasidagi tafovut 10 foizdan oshsa, ish uchinchi ekspert tomonidan qayta ko‘rib chiqiladi.

Benchmarking – baholash natijalarini xalqaro yoki milliy mezonlar bilan solishtirish. Bunda Universitet baholash tizimining samaradorligini oshirish maqsadida milliy va xalqaro universitetlar tajribasi bilan taqqoslash (benchmarking) tahlillarini olib boradi. Natijalar o‘quv dasturlari va baholash mexanizmlarini takomillashtirishda foydalaniladi.

Baholash materiallarini oldindan ekspertiza qilish.

2.5. Har bir fan (modul) bo‘yicha baholash tartibi va mezonlari fan sillabusi tarkibida aks ettiriladi (2-ilova) hamda tegishli kafedra yig‘ilishida muhokama qilinib, Akademik departament tomonidan tasdiqlanadi. Sillabusda baholash turlari, topshiriqlar shakli, baholash mezonlari va ball taqsimoti aniq ko‘rsatilishi shart.

2.6. Baholash jarayonlari zamonaviy raqamli ta’lim platformalari (HEMIS/LMS) orqali amalga oshirilishi mumkin. Elektron tizimlar orqali:

topshiriqlarni qabul qilish;

natijalarni kiritish;

talabalar faoliyatini monitoring qilish;

statistik tahlillarni amalga oshirish imkoniyati yaratiladi.

2.7. Imtixon materiallari maxfiylik tamoyillariga qat’iy rioya etilgan holda tayyorlanadi. Savollar banki alohida himoyalangan muhitda saqlanadi hamda imtixon jarayoniga qadar uchinchi shaxslarga oshkor etilishi taqiqlanadi.

2.8. Baholash jarayonida inson omilini kamaytirish hamda baholashning xolisligini oshirish maqsadida standartlashtirilgan baholash rubrikalari va mezonlari qo‘llaniladi. Har bir topshiriq uchun aniq performance indikatorlari ishlab chiqiladi.

2.9. Universitet baholash jarayonining samaradorligini oshirish maqsadida har semestr yakunida Akademik departament hamda Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi ichki akademik audit o'tkazadi. Audit jarayonida quyidagilar tahlil qilinadi:

- baholash mezonlariga rioya etilishi;
- baholar taqsimotining obyektivligi;
- talabalar fikr-mulohazalari;
- akademik halollik holatlari.

Ichki akademik audit natijalari bo'yicha hisobot Universitet kengashiga taqdim etiladi va aniqlangan kamchiliklar bo'yicha choralar rejasi ishlab chiqiladi. Audit hisoboti 4-ilovadagi, choralar rejasi 5-ilovadagi standart shakl asosida rasmiylashtiriladi.

2.10. Baholash jarayonida shaffoflikni ta'minlash maqsadida talabalar o'z natijalarini elektron tizim orqali ko'rish imkoniyatiga ega bo'ladilar hamda baholash mezonlari oldindan e'lon qilinadi.

2.11. Professor-o'qituvchilar baholash jarayonida professional etikaga rioya etishi, manfaatlar to'qnashuviga yo'l qo'ymasligi hamda baholash natijalarini asossiz o'zgartirmasligi shart.

2.12. Baholash natijalari ta'lim sifatini takomillashtirish uchun asosiy indikatorlardan biri sifatida foydalaniladi va o'quv dasturlarini qayta ko'rib chiqishda hisobga olinadi.

2.13. Universitetda baholash tizimi samaradorligini baholash va monitoring qilish maqsadida quyidagi asosiy indikatorlar muntazam ravishda tahlil qilinadi:

- fanlar kesimida baholar taqsimotining statistik tahlili;
- akademik qarzdorlik darajasi va uning dinamikasi;
- baholash natijalari bo'yicha berilgan apellyatsiya arizalari ulushi;
- akademik halollik qoidalari buzilishi holatlari statistikasi;
- talabalar qoniqish darajasi (anonim so'rovnomalar asosida);
- o'quv natijalariga erishish ko'rsatkichlari (learning outcomes attainment).

2.13.1. Mazkur indikatorlar uchun quyidagi maqsadli ko'rsatkichlar belgilanadi:

- fanlar bo'yicha baholar taqsimotida ijobiy baho olganlar ulushi kamida 85 foiz;
- akademik qarzdorlik darajasi 10 foizdan oshmasligi;
- baholash natijalari bo'yicha apellyatsiya arizalari ulushi 5 foizdan oshmasligi;
- akademik halollik qoidalari buzilishi holatlari 2 foizdan oshmasligi;
- talabalar qoniqish darajasi 5 ballik shkalada kamida 4.0 ball;
- o'quv natijalariga erishish ko'rsatkichi kamida 80 foiz.

Maqsadli ko'rsatkichlar har o'quv yili boshida Akademik ishlar departamenti tomonidan qayta ko'rib chiqiladi va zarurat bo'lganda Universitet Kengashi qarori bilan yangilanadi.

2.14. Baholash tizimining xolisligi va xalqaro standartlarga mosligini ta'minlash maqsadida Universitet baholash jarayonlariga tashqi akademik ekspertlarni jalb qilishi mumkin.

Tashqi ekspertiza (External Moderation) quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- yakuniy nazorat materiallarini ekspertiza qilish;
- baholash mezonlari va rubrikalarini tahlil qilish;
- talabalar yozma ishlari yoki loyihalarini tanlab baholash;
- baholash tizimini xalqaro tajribalar bilan solishtirish (benchmarking).

Tashqi ekspertiza natijalari bo'yicha tavsiyalar Universitetning tegishli akademik tuzilmalari tomonidan ko'rib chiqiladi va baholash tizimini takomillashtirishda foydalaniladi.

2.15. Baholash tizimining sifatini oshirish maqsadida Universitet professor-o'qituvchilari uchun baholash metodologiyasi, akademik halollik va zamonaviy pedagogik baholash yondashuvlari bo'yicha muntazam malaka oshirish seminar va treninglari tashkil etiladi.

Mazkur treninglar quyidagi yo'nalishlarni qamrab oladi:

- kompetensiyaga asoslangan baholash metodlari;
- baholash rubrikalari (mezon)ni ishlab chiqish;
- akademik halollik tamoyillari;
- raqamli baholash platformalaridan foydalanish.

Treninglar Akademik ishlar departamenti, Ta'lim sifatini ta'minlash bo'limi hamda zarur hollarda tashqi ekspertlar ishtirokida tashkil etiladi.

2.16. Universitet xalqaro tajribadan kelib chiqib baholash jarayonlarini muntazam ravishda modernizatsiya qiladi hamda innovatsion baholash yondashuvlarini bosqichma-bosqich joriy etadi.

III. Baholash tartibi va mezonlarini e'lon qilish

3.1. Har bir fan (modul) bo'yicha talabalar bilimni baholash tartibi, mezonlari va usullari fan sillabusi tarkibida batafsil bayon etiladi.

3.2. Fan sillabusida quyidagi ma'lumotlar majburiy tartibda aks ettiriladi (1-ilova):

- baholash turlari (joriy, oraliq va yakuniy nazorat);
- baholash shakllari va topshiriqlar turi;
- har bir baholash turi uchun ball taqsimoti;
- baholash mezonlari va rubrikalar;
- baholash muddatlari va topshiriqlarni topshirish tartibi.

3.3. Fan sillabusi semestr boshlanishidan oldin HEMIS axborot tizimi va Universitetning rasmiy ta'lim platformalarida e'lon qilinadi.

3.4. Professor-o'qituvchi semestrning birinchi mashg'ulotlarida nazorat turlari ham topshiriqlar sharti bo'yicha talabalarni baholash tartibi, mezonlari va talablari bilan tanishtirishi shart. Bunda har bir fanning xususiyatidan kelib chiqib topshiriq shakli belgilanadi.

3.5. Baholash mezonlari talabalar uchun aniq, tushunarli va o'lchab bo'ladigan shaklda ifodalanishi lozim (3-ilova).

3.6. Baholash mezonlariga o'zgartirish kiritilgan taqdirda, bu haqda talabalar kamida 7 kun oldin xabardor qilinadi.

3.7. Universitet talabalar tomonidan baholash tartibi va mezonlari bo'yicha bildirilgan fikr-mulohazalari anonim onlayn so'rovnomalar (HEMIS/GOOGLE FORMS platformasi orqali) orqali muntazam ravishda yig'ib boradi va tahlil qiladi.

3.8. Baholash mezonlarining ochiqligi va shaffofligi ta'lim jarayonida teng imkoniyatlarni ta'minlashning asosiy sharti hisoblanadi.

IV. Formativ va summativ baholash tizimi

4.1. Universitetda talabalar bilimni baholash formatlari formativ va summativ baholash tizimlari asosida amalga oshiriladi.

4.2. Formativ baholash ta'lim jarayoni davomida amalga oshirilib, talabaga o'z bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish uchun muntazam fikr-mulohaza (feedback) berishga qaratiladi.

4.3. Formativ baholash quyidagi shakllarda amalga oshirilishi mumkin:

- darsdagi faollikni baholash;
- mustaqil va ijodiy topshiriqlar;
- kichik testlar va amaliy mashqlar;
- loyiha va taqdimotlar.

4.4. Summativ baholash fan yoki modul yakunida talabalar tomonidan erishilgan umumiy o'quv natijalarini aniqlash maqsadida o'tkaziladi.

4.5. Summativ baholash tarkibiga quyidagilar kiradi:

- oraliq nazorat (ON);
- yakuniy nazorat (YaN).

4.6. Fan sillabusiga muvofiq baholash ballari quyidagicha taqsimlanadi:

1. Joriy nazorat. Ushbu nazorat turi semestr davomida to'planib boriladi. O'qituvchi tomonidan dars davomida topshiriqlar, uyga vazifa va talabaning darsdagi faolligiga urg'u beriladi va talaba o'tilgan mavzularni o'zlashtirishi, mustaqil topshiriqlarni bajarishi va himoya qilishi, darsdagi faol ishtirokini hisobga olib umumiy 40 balgacha baholanadi. Bunda 20 ball talabaning darsda o'z vaqida ishtirok etishi hamda faolligi uchun, 20 ball esa 10 balldan ikkita topshiriqni belgilangan tartibda o'z vaqtida bajarganliklari uchun qo'yiladi.

2. Oraliq nazorat. Oraliq nazorat semestr davomida fan dasturining tegishli bo'limi (mavzular) tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'quv semestrining 8-haftasida o'tkaziladi. Oraliq nazorat fan xususiyatidan kelib chiqib, o'tilgan mavzular yuzasidan yozma ish, test, insho, loyiha ishi shaklida olinadi va umumiy 30 balgacha baholanadi.

3. Yakuniy nazorat. Yakuniy nazorat turi semestr yakunida fan bo'yicha talabaning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida o'quv semestrining 16-haftasida o'tkaziladi. Yakuniy nazorat Akademik ishlar departamenti tomonidan ishlab chiqiladigan yakuniy nazorat imtihonlarini o'tkazish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi. Yakuniy nazorat fan xususiyatidan

kelib chiqqan holda barcha o‘tilgan mavzularni qamrab olishi hamda yozma ish, test, loyiha ishi va boshqa shakllarda olinadi va umumiy 30 balgacha baholanadi.

Barcha nazorat ishlari hamda topshiriqlar fan sillabusi bilan birgalikda semestr boshida hamda o‘quv jarayonida Akademik ishlar departamenti tomonidan imzolanadi;

4.7. Baholashda yozma, og‘zaki, test, loyiha va kompleks baholash shakllaridan foydalanilishi mumkin.

4.8. Xalqaro tajribaga muvofiq, baholash jarayonida portfel (portfolio), keys-tahlil va muammoga asoslangan topshiriqlar qo‘llanishi mumkin.

4.9. Baholash natijalari talabaga o‘z vaqtida e‘lon qilinadi va izohlanadi.

V. Baholash mezonlari va o‘quv natijalari bilan bog‘liqligi

5.1. Universitetda baholash mezonlari har bir fan (modul) sillabusida aks ettiriladi va baholash jarayonida ularning o‘zaro uyg‘unligi ta‘minlanadi.

5.2. Baholash tizimi talabaning nafaqat yakuniy bilim darajasini, balki uning o‘quv jarayonidagi rivojlanish dinamikasi, mustaqil fikrlashi va amaliy kompetensiyalarini ham aniqlashga qaratiladi.

5.3. Har bir topshiriq uchun baholash tartibi ishlab chiqilib, unda mezonlar, ball diapazoni, baholash darajalari aniq ko‘rsatiladi.

5.4. Baholash mezonlari quyidagi kompetensiyalarni baholashga xizmat qiladi:

- nazariy bilimlarning puxtaligi;
- analitik va tanqidiy fikrlash;
- muammolarni tizimli hal etish;
- ijodkorlik va innovatsion yondashuv;
- kommunikativ ko‘nikmalar.

5.5. Baholash mezonlari diskriminatsiyasiz va xolis bo‘lishi hamda barcha talabalar uchun teng sharoit yaratishi shart.

5.6. Professor-o‘qituvchilar baholash mezonlarini ishlab chiqishda Bloom taksonomiyasi, kompetensiyaga asoslangan ta‘lim va xalqaro benchmarking amaliyotlaridan foydalanishlari tavsiya etiladi.

5.7. Baholash natijalari muntazam ravishda tahlil qilinadi va ta‘lim dasturlarini takomillashtirish, fan sillabuslarini yangilash hamda o‘quv yuklamasini optimallashtirishda asosiy manba sifatida qo‘llaniladi.

5.8. Universitetda baholash natijalari ta‘lim dasturlari sifatini oshirishning muhim manbasi sifatida qo‘llaniladi. Shu maqsadda baholash natijalari asosida ta‘lim dasturlarini takomillashtirishda bir qator mexanizmlar amal qiladi:

- baholash natijalari fanlar kesimida tahlil qilinadi;
- o‘quv natijalariga erishish darajasi (learning outcomes attainment) aniqlanadi;
- aniqlangan muammolar asosida fan sillabuslari va o‘quv dasturlari qayta ko‘rib chiqiladi;
- tegishli kafedra yig‘ilishlari va fakultet kengashlarida muhokama o‘tkaziladi.

Mazkur jarayon Akademik ishlar departamenti, Ta‘lim sifatini nazorat qilish bo‘limi hamda tegishli kafedralar tomonidan amalga oshiriladi.

5.9. Talabalarga baholash mezonlari semestr boshida tushuntiriladi hamda zarurat tug‘ilganda qo‘shimcha konsultatsiyalar tashkil etiladi.

5.10. Baholash jarayonida konstruktiv feedback berish professor-o‘qituvchilarning majburiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

5.11. Universitet baholash mezonlari samaradorligini oshirish maqsadida o‘zaro baholash va o‘zini o‘zi baholash elementlarini bosqichma-bosqich joriy etishi mumkin.

VI. Akademik halollik va shaffoflik

6.1. Umumiy tamoyillar

6.1.1. Universitetda baholash jarayoni akademik halollik, adolat, xolislik, tenglik va shaffoflik tamoyillariga asoslanadi hamda quyidagi ichki normativ hujjatlar orqali tartibga solinadi:

- akademik halollik siyosati;
- imtihonlarni tashkil etish tartibi;
- baholash mezonlari va rubrikalar reglamenti;
- talabalar bilimni baholash nizomi;
- apellyatsiya tartibi to‘g‘risidagi reglament.

6.2. Manfaatlar to‘qnashuvining oldini olish

6.2.1. Professor-o‘qituvchilar:

– qarindoshlik, moliyaviy yoki boshqa manfaatlar mavjud bo‘lgan talabalarni baholashdan chetlashtiriladi;

– har semestr boshida manfaatlar to‘qnashuvi yo‘qligi to‘g‘risida deklaratsiya taqdim etadi;

– baholash mezonlarini semestr davomida asossiz o‘zgartirish huquqiga ega emas.

6.2.2. Manfaatlar to‘qnashuvi aniqlanganda baholash boshqa mustaqil baholovchiga topshiriladi.

6.3. Talabalar baholash jarayonining shaffof va adolatli ekanligiga quyidagi mexanizmlar orqali ishonch hosil qiladilar:

- baholash mezonlari va rubrikalarning semestr boshida e‘lon qilinishi;
- har bir topshiriq bo‘yicha yozma yoki elektron feedback berilishi;
- baholash natijalarining HEMIS orqali e‘lon qilinishi;
- baholash natijalarini ko‘rib chiqish va apellyatsiya berish huquqi.

6.4. Universitet baholash jarayonining xolisligini ta‘minlash maqsadida plagiatni aniqlash dasturlari, videokuzatuv va elektron monitoring tizimlaridan foydalanishi mumkin.

6.5. Plagiat darajalari va choralar

O‘xshashlik foizi	Baholash qarori
0–20%	Texnik xatolik yoki iqtibos qoidalari buzilishi, ogohlantirish
20–40%	Topshiriqni qayta topshirish huquqi
40–60%	Topshiriq bekor qilinadi, 0 ball
60% dan yuqori	Fan bo‘yicha “F” baho va intizomiy komissiyaga yuborish

Izoh: foiz yakuniy qaror uchun yagona mezon bo'la olmaydi; ekspert bahosi ham inobatga olinadi.

6.6. Akademik halollikni buzish holatlari aniqlanganda dastlabki tekshiruv kafedra yoki mas'ul tuzilma tomonidan amalga oshiriladi.

6.7. Tekshiruv jarayonida quyidagi bosqichlar amalga oshiriladi:

- dalillarni yig'ish va tahlil qilish;
- talabdan tushuntirish xati olish;
- plagiat yoki boshqa huquqbuzarlik darajasini aniqlash.

6.8. Tekshiruv natijalari bo'yicha bayonnoma tuziladi va ish akademik halollik komissiyasiga taqdim etiladi.

6.8.1. Akademik halollik komissiyasi

Komissiya tarkibi:

- Akademik ishlar bo'yicha prorektor (rais);
- Sifat bo'limi vakili;
- Yuridik maslahatchi;
- Tegishli fakultet dekani;
- Talabalar vakili (maslahatchi sifatida).

6.8.2. Komissiya qarori 5 ish kuni ichida qabul qilinadi.

6.9. Komissiya qaroriga asosan ogohlantirish, topshiriqni bekor qilish, fan bo'yicha "F" baho qo'yish yoki boshqa intizomiy choralar qo'llaniladi.

6.9. Talabalar akademik halollik qoidalari bilan semestr boshida tanishtiriladi va ushbu qoidalarga rioya etish majburiyatini qabul qiladilar.

6.10. Universitet akademik halollik madaniyatini rivojlantirish maqsadida muntazam ravishda seminarlar, treninglar va tushuntirish ishlarini olib boradi hamda plagiat bo'yicha metodik qo'llanmalar ishlab chiqadi va tadbiq etadi.

VII. Yakuniy qoidalar

7.1. Mazkur Nizom Xalqaro Nordik universiteti Ilmiy kengashi qarori bilan tasdiqlangan kundan boshlab kuchga kiradi va universitetning barcha tarkibiy bo'linmalari uchun majburiy hisoblanadi.

7.2. Nizom talablariga rioya etilishi ustidan umumiy nazorat Akademik ishlar departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

7.3. Universitetda baholash tizimi doimiy ravishda talabalar fikr-mulohazalari, akademik audit natijalari, ish beruvchilar tavsiyalari, baholash statistikasi asosida takomillashtirib boriladi hamda xalqaro ta'lim standartlari, milliy normativ-huquqiy hujjatlar va akkreditatsiya talablari asosida yangilanadi. Baholash tizimiga kiritilgan o'zgarishlar va takomillashtirish natijalari quyidagi yo'llar orqali talabalar va professor-o'qituvchilarga yetkaziladi:

yangilangan baholash mezonlari va tartibi fan sillabuslarida aks ettiriladi va HEMIS platformasida joylashtiriladi; asosiy o'zgarishlar haqida semestr boshidagi birinchi mashg'ulotda professor-o'qituvchi tomonidan tushuntiriladi;

universitetning rasmiy veb-sayti va axborot resurslari orqali e'lon qilinadi;

talabalar vakillik organlari yig'ilishlarida muhokama qilinadi.

7.4. Nizom talablarini buzgan shaxslar amaldagi ichki tartib-qoidalar va mehnat hamda ta'lim intizomi normalariga muvofiq javobgarlikka tortiladi.

7.5. Nizomga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish Akademik ishlar departamenti taklifiga asosan Ilmiy kengash qarori bilan amalga oshiriladi.

7.6. Universitet baholash tizimini rivojlantirish maqsadida xalqaro universitetlar tajribasini o'rganish va innovatsion baholash yondashuvlarini joriy etishga haqlidir.

7.7. Agar mazkur Nizomda nazarda tutilmagan holatlar yuzaga kelsa, ular universitetning boshqa ichki normativ hujjatlari hamda amaldagi qonunchilik asosida hal etiladi.

7.8. Mazkur Nizom Universitetning rasmiy axborot resurslarida e'lon qilinadi va talabalar hamda professor-o'qituvchilar uchun ochiq holda taqdim etiladi.

7.9. Nizom kamida har uch yilda bir marotaba qayta ko'rib chiqiladi hamda zarurat tug'ilganda muddatidan oldin yangilanishi mumkin.

7.10. Ushbu Nizom Xalqaro Nordik universitetida talabalar bilimni baholashning yagona akademik standartini belgilaydi hamda ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi.

**TALABALARNI BILIMINI BALL VA GPA SHKALASI BO'YICHA BAHOLASH
TAVSIFI**

Baho	Ball	Shkala
A+	90 – 100	4.25 – 4.50
A	85 – 89	4.00 – 4.24
A-	80 – 84	3.75 – 3.99
B+	75 – 79	3.50 – 3.74
B	70 – 74	3.25 – 3.49
B-	65 – 69	3.00 – 3.24
C+	60 – 64	2.75 – 2.99
C	55 – 59	2.50 – 2.74
D	50 – 54	2.40 – 2.49
F	0 – 49	0.00 – 2.39

**TALABALAR BILIMINI BAHOLASHDA NAZORAT TURLARI BO'YICHA
TOPSHIRIQ SHAKLLARI HAMDA ULARNING BALLAR TAQSIMOTI JADVALI**

№	Nazorat turlari	Izohi	Ball	Nazorat muddati
Joriy nazorat (JN)				
1.	Topshiriq turi	Talabaning dars mashg'ulotlaridagi ishtiroki majburiy bo'lib, uning darsdagi faolligi, o'tilgan mavzuni o'zlashtirishi hamda fan ustozining har bir mavzuga oid bergan vazifalarini bajarib borganligi hisobga olinadi.	20	<i>Semestr yakuniga qadar</i>
2.	1-topshiriq	Fan o'qituvchisi tomonidan belgilangan muddatlarda tasdiqlangan topshiriq shakli HEMIS axborot tizimiga joylashtiriladi, talabalarga biriktiriladi hamda topshirishning yakuniy muddati belgilanadi. Talabalar belgilangan muddat doirasida bajarilgan topshiriqlarini HEMIS platformasi orqali yuklaydilar. Fan o'qituvchisi tomonidan yuklangan topshiriqlar oldindan belgilangan baholash mezonlari asosida baholanadi va talabaga o'quv natijalarini takomillashtirishga qaratilgan yozma yoki elektron fikr-mulohaza (feedback) taqdim etiladi.	10	<i>3-6 hafta mobaynida</i>
3.	2-topshiriq		10	<i>10-13 hafta mobaynida</i>
Jami			40	
Oraliq nazorat (ON)				
4.	Oraliq nazorat semestr davomida fan dasturining tegishli bo'limi (mavzular) tugagandan keyin talabaning bilim va amaliy ko'nikmalarini baholash maqsadida o'tkaziladi. Oraliq nazorat fan xususiyatidan kelib chiqib, o'tilgan mavzular yuzasidan yozma ish, test, insho, loyiha ishi shaklida olinadi		30	<i>8-hafta</i>
Jami			30	
Yakuniy nazorat (YN)				

5.	Yakuniy nazorat turi semestr yakunida fan bo'yicha talabanning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini o'zlashtirish darajasini aniqlash maqsadida Akademik ishlar departamenti tomonidan ishlab chiqiladigan yakuniy nazorat imtihonlarini o'tkazish jadvaliga muvofiq amalga oshiriladi. Yakuniy nazorat fan xususiyatidan kelib chiqqan holda barcha o'tilgan mavzularni qamrab olishi hamda yozma ish, test, loyiha ishi va boshqa shakllarda olinadi	30	16-hafta
Jami		30	
Umumiy		100	

3-ilova

BAHOLASH MEZONI NAMUNASI

Mezon	Yuqori daraja (90-100%)	O'rta daraja (70-89%)	Past daraja (50-69%)
Nazariy bilim	Mavzu chuqur tahlil qilingan	Asosiy tushunchalar yoritilgan	Tushunchalar yuzaki
Analitik fikrlash	Mustaqil xulosalar mavjud	Qisman tahlil	Tahlil yetarli emas
Metodologiya	Metodlar to'g'ri tanlangan	Qisman asoslangan	Metodlar noto'g'ri
Taqdimot sifati	Juda aniq va mantiqli	Qisman mantiqli	Tizimsiz

SEMESTRLIK ICHKI AKADEMIK AUDIT HISOBOTI SHAKLI

(Nizom, 2.9-bandiga muvofiq)

1. UMUMIY MA'LUMOT	
Fakultet / Yo'nalish	[_____]
Hisobot davri	20__ / 20__ o'quv yili, __-semestr
Tayyorlagan	Akademik ishlar departamenti + Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi
Taqdim etilgan sana	"__" _____ 20__ yil

2. KPI NATIJALARI (Nizom, 2.13-band)						
№	Indikator	Maqsad	Fakt	Farq	Holat	Izoh
1	Ijobiy baho olganlar ulushi (%)	≥85%	[__%]	[+/- __%]	[]	
2	Akademik qarzdorlik darajasi (%)	≤10%	[__%]	[+/- __%]	[]	
3	Apellyatsiya arizalari ulushi (%)	≤5%	[__%]	[+/- __%]	[]	
4	Akademik halollik buzilishi holatlari (%)	≤2%	[__%]	[+/- __%]	[]	
5	Talabalar qoniqish darajasi (5 ballik)	≥4.0	[__]	[+/- __]	[]	
6	O'quv natijalariga erishish (LO attainment) (%)	≥80%	[__%]	[+/- __%]	[]	

Holat belgilari: Yaxshi (maqsadga erishilgan) | Qoniqarli (farq 5% ichida) | Tanqidiy (maqsaddan past)

3. FANLAR KESIMIDA BAHOLAR TAQSIMOTI (%)											
№	Fan nomi	A+	A	A-	B+	B	B-	C+	C	D	F
1	[Fan nomi]										
2	[Fan nomi]										
3	[Fan nomi]										

4. ANIQLANGAN MUAMMOLAR					
№	Muammo tavsifi	Manba	Tegishli KPI	Risk darajasi	Izoh
1	[Masalan: 2 ta fanda F baho ulushi 20% dan oshgan]	[Baholar statistikasi]	[KPI-1]	[Yuqori]	

2	[Masalan: Talabalar 3 ta fanning baholash mezonlari noaniq deb qayd etgan]	[So'rovnoma]	[KPI-5]	[O'rta]	
3					

5. OLDINGI SEMESTR CHORALAR REJASI IJRO HOLATI

No	Belgilangan chora	Mas'ul	Muddat	Ijro holati	Natija
1	[Masalan: Statistika fani sillabusini yangilash]	[Kafedra mudiri]	[01.09.2026]	[Bajarildi]	[Sillabus yangilandi]
2					

6. XULOSA VA TASDIQLASH

<p>Baholash jarayoni samaradorligi umumiy bahosi:</p> <p><input type="checkbox"/> Yaxshi — barcha KPI maqsadga erishgan</p> <p><input type="checkbox"/> Qoniqarli — ko'pchilik KPI maqsad yaqinida</p> <p><input type="checkbox"/> Takomillashtirish zarur — 2+ KPI tanqidiy holatda</p>	<p>Tasdiqlash:</p> <p>Akademik ishlar bo'yicha prorektor _____ / [FIO]</p> <p>"__" _____ 20__ y.</p>
--	--

BAHOLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH CHORALAR REJASI SHAKLI

(Nizom, 2.9-bandiga muvofiq)

Fakultet / Yo'nalish: _____ Davr: 20__ / 20__ o'quv yili, ___-semestr

BAHOLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH CHORALAR REJASI

Nizom 2.9-bandiga muvofiq audit natijalari asosida ishlab chiqiladi

№	Amiqlangan muammo	Mamba	Taklif etilgan chora	Bog'liq KPI	Mas'ul	Muddat	Monitoring shakli	Kuflayotgan natija	Ijro holati
1	[Masalan: 2 ta fanda F baho 20% dan yuqori]	[Baholar statistikasi, audit]	[O'qituvchilarga baholash metodikasi bo'yicha seminar, sillabus mezonlarini aniqlashirish]	[KPI-1: $\geq 85\%$]	[Kafedra mudiri]	[01.03.20__]	[Keyingi semestr audit hisoboti]	[F baho ulushi 10% ga kamaytirish]	[Rejalashtirilgan]
2	[Masalan: Baholash mezonlari noaniq — 3 ta fanda talabalar shikoyati]	[Talabalar so'rovnomasi]	[Sillabuslarni qayta ko'rib chiqish; rubrikalarni batafsil yozish; birinchi darsda tushuntirish]	[KPI-5: ≥ 4.0]	[Fan o'qituvchisi + kafedra]	[15.02.20__]	[Talabalar qayta so'rovi]	[Qoniqish 4.0+ ga oshirish]	[Rejalashtirilgan]
3	[Masalan: Akademik halollik buzilishi 3% — maqsaddan yuqori]	[Intizom komissiyasi]	[Plagiatga tekshirish kuchaytiriladi; talabalar uchun seminar o'tkaziladi]	[KPI-4: $\leq 2\%$]	[Akademik dept + sifat bo'limi]	[01.04.20__]	[Keyingi semestr statistikasi]	[Buzilish 2% ga tushirish]	[Rejalashtirilgan]
4									
5									

Ijro holati belgilari: Bajarlildi (yashil) | Jarayonda (sariq) | Rejalashtirilgan (sariq) | Bajarlilmadi (qizil)

TASDIQLASH

Tayyorladi: Akademik ishlar departamenti boshlig'i _____/ [FIO] " __ " ____ 20__ y.	Kelishildi: Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limi boshlig'i _____/ [FIO] " __ " ____ 20__ y.	Tasdiqladi: Akademik ishlar bo'yicha prorektor _____/ [FIO] " __ " ____ 20__ y.
--	--	--